https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Umurzakova Sevara Abdukarimovna
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti
abdukarimsevara@gmail.com +998 88 482 14 09

O‘ZBEK TILI TA’LIMDA SOHAVIY MATNLAR INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada til ta’limida o‘zbek tilini sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan ta’lim sifatini oshirish va davlat tilining funksional imkoniyatlarini kengaytirish vazifalariga muvofiq olib borildi. Maqolada o‘zbek tilini birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonlarini, mavjud darslik, dasturlardagi autentik matn- sohaviy matnlarning umumiy hamda xususiy jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Sohaviy matnlar asosida ishlab chiqilgan integrativ yondashuv o‘rganuvchilarning kasbiy leksikasi, yozma va og‘zaki nutqi, shuningdek, ilmiy va rasmiy uslubda muloqot yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkibiy qismlarini shakllantirishda sohaviy matnlar muhim didaktik birlik ekanini ko‘rsatadi hamda o‘zbek tili ta’limi uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan integrativ metodik modelni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, sohaviy matnlar, o‘zbek tili ta’limi, integrativ o‘qitish, kasbiy nutq, davlat tili, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методические основы обучения узбекскому языку в системе языкового образования на основе интеграции отраслевых текстов с применением коммуникативного подхода. Исследование выполнено в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № PF–5850 «О мерах по коренному

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного» и задачами, определёнными в стратегии «Узбекистан–2030», направленными на повышение качества образования и расширение функциональных возможностей государственного языка. В статье проводится сравнительный анализ общих и специфических особенностей преподавания узбекского языка как родного, второго и иностранного языка. Обосновывается эффективность интегративного подхода, разработанного на основе отраслевых текстов, в развитии профессиональной лексики обучающихся, их устной и письменной речи, а также навыков коммуникации в научном и официально-деловом стилях. Результаты исследования подтверждают, что отраслевые тексты выступают важной дидактической единицей в формировании коммуникативной компетенции, включающей лингвистический, социолингвистический и прагматический компоненты, и позволяют предложить интегративную методическую модель, имеющую научно-практическое значение для преподавания узбекского языка.

Ключевые слова: коммуникативный подход, отраслевые тексты, обучение узбекскому языку, интегративное обучение, профессиональная речь, государственный язык, коммуникативная компетенция.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching the Uzbek language within language education through the integration of field-specific texts based on a communicative approach. The study is conducted in accordance with Presidential Decree No. PF–5850 of October 21, 2019, “On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language,” as well as the objectives outlined in the “Uzbekistan–2030” strategy aimed at improving educational quality and expanding the functional use of the state language. The paper presents a comparative analysis of the common and specific features of teaching Uzbek as a first language, a second language, and a foreign language. It substantiates the effectiveness of an integrative approach

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

developed on the basis of field-specific texts in enhancing learners' professional vocabulary, oral and written communication skills, and their ability to communicate effectively in scientific and official styles. The research findings demonstrate that field-specific texts serve as an essential didactic unit in developing communicative competence, including linguistic, sociolinguistic, and pragmatic components, and propose an integrative methodological model of significant scientific and practical value for Uzbek language education.

Keywords: communicative approach, field-specific texts, Uzbek language education, integrative teaching, professional communication, state language, communicative competence.

Introduction. Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish sharoitida til ta'limi mazmunini zamon talablari asosida yangilash hamda uni real ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlar bilan integratsiyalash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, o‘zbek tilini ta'lim jarayonida faqat nazariy til tizimi sifatida emas, balki kasbiy, ilmiy va ijtimoiy muloqotning samarali vositasi sifatida o‘qitish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa til ta'limida kommunikativ yondashuv va sohaviy matnlar integratsiyasiga asoslangan yangi metodik yechimlarni talab etish bilan bir qatorda o‘zbek tilini sohaga oid matnlar asosida integratsiyalab o‘qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda talabalarda kasbiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi. Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-sonli "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni hamda "O‘zbekiston–2030" strategiyasida belgilangan ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va davlat tilining funksional imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu hujjatlarda o‘zbek tilining ilm-fan, ta'lim va kasbiy faoliyatda faol qo‘llanishini ta'minlash muhim ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Literature review. O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning maqsadi - o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy компetentlikni oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarda soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish.O‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish hamda kasbiy, ilmiy va maishiy sohalarda faoliyat yuritishlarida kommunikativ kompetensiya (uning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va boshqa kompetensiyalari)ni shakllantirishdan iborat.

O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning vazifalari – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta’minlash; Kasbiy terminologiyani, egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me’yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga, nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish,soha bo‘yicha dastlabki ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlari,sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta’minlashdir. [7] “Kompetensiya” tushunchasi ilk bor XX asrning 50-60-yillarida taniqli amerikalik olim Noam Homski asarlarida tilga olingan bo‘lib, insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etilgan. N.Homski “Sintaktik strukturalar”, “Sintaksis nazariyasining aspektlari” asarlarida “kompetensiya” (competence) va “qo‘llanish” (performance) tushunchalarini qiyosiy tahlil qilgan, hamda ushbu terminlar mazmunidagi farqlarni “so‘zlovchi-tinglovchi”ning bilimlari bilan tilning muloqot va faoliyatida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qo‘llanishi orasidagi tafovutlar orqali ochib bergan.O‘zbekiston ta'lim muassasalarida kompetent yondashuv 2012-yildan tatbiq etila boshlandi. Ushbu tushuncha o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan vaziyatlarda turli tipdagi malakalarni samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish sifatida talqin qilinadi.[1;31-32b] Shu bilan birga, o‘zbek tilini birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonlarida yagona kommunikativ va integrativ metodik modelning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu sohani amaliy jihatdan takomillashtirish, o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash borasida ham salomoqli ishlar amalga oshirilgan, xususan, akademik Sh.Sirojiddinov, D.Ermatova, M.Uzoqova muallifligidagi “Xorijliklar uchun o‘zbek tili” (A1, A2 daraja) darsliklari til bilishning umumyevropa kompetensiyalariga muvofiq o‘zbek tilini to‘rtta til ko‘nikmalari (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) asosida o‘qitish va o‘rganishga mo‘ljallangan.[3] Integrativ yondashuv asosida xorijliklar uchun A1, A2, B1, B2 darajalariga mos “O‘zbekona” dasturi va A1, A2, B1 darajalar uchun “O‘zbekona” darsligi yaratilgan.[4] Yuqorida sanab o‘tilgan dastur, tadqiqot va darsliklar Xorijliklarga o‘zbek tilini A1, A2, B1, B2 darajalarda o‘qitish borasida amalga oshirilgan salmoqli ishlar ekanligini alohida e’tirof etish joiz. Shuningdek, mazkur jarayonni sohaviy matnlar integratsiyasi asosida tashkil etish ham samarali natija berishi mumkinligi, til o‘rganuvchilarning mutaxassisligi doirasidagi muloqot ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi haqidagi farazni ilgari suramiz. Nazarimizda, andragogik ta’limda o‘zbek tilini sohaviy matnlar asosida integratsiyalab o‘qitish borasida izlanishlar olib borish orqali bu boradagi tadqiqotlarni davom ettirish, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasini takomillashtirish mumkin. Andragogik ta’limda o‘zbek tilini sohaviy matnlar asosida integratsiyalab o‘qitishning ahamiyati til o‘rganuvchilarni kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda, o‘z sohalariga tegishli matnlar orqali o‘qitishda namoyon bo‘ladi. Ushbu usul o‘quvchilarni aniq va kasbiy til materiallari bilan ta’minlash orqali nafaqat til kompetentsiyalarini rivojlantiradi, balki o‘z sohalarida ishlatadigan til birliklarini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘zlashtirishni ham osonlashtiradi. Bu yondashuv o‘rganuvchilarning o‘zbek tilini o‘rganishga nisbatan motivatsiyasini oshirishi mumkin hamda ular uchun real ish muhitida foydalaniladigan tilni o‘zlashtirish imkonini beradi. O‘zbek tilini sohaviy matnlar asosida integratsiyalab o‘qitish jarayoni quyidagi bir qator muhim jihatlarga ega.[9.] Mavjud darslik va dasturlarda autentik matnlar ustuvorligi ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri ikki matnning umumiy va xususiy jihatlari ham mavjud. Autentik matnlar orqali o‘quvchilar real hayotiy nutq muhitiga moslashsa, sohaviy matnlar kasbiy muloqot va maxsus terminologiyani tushunish hamda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. [8] Aksariyat hollarda sohaviy matnlar yordamchi vosita sifatida qo‘llanib, ularning didaktik va kommunikativ salohiyati to‘liq ishga solinmaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — o‘zbek tilini sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash hamda o‘zbek tilini birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitishdagi umumiy va xususiy jihatlarni aniqlashdan iborat.

Research methodology. Kimga?, Nimani?, Qanday? O‘qitish kerak. Ta’lim qonuniyatlari, shakli, mazmunini aniq qilish hamda usullarni to‘g‘ri qo‘llash va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish kabi nazariy-metodik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks, tizimli va fanlararo yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot o‘zbek tilini sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishning til o‘rganishning samarasi quyidagi muhim jihatlarga bog‘liq:

- o‘rganuvchining (o‘quvchi, tinglovchi) motivatsiyasi, qiziqishlari, ehtiyojlari, faolligi;
- ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi;
- til ta’limida o‘quvchining shaxsiy xususiyatlaridan maksimal foydalanish
- o‘qituvchining o‘quv materialini tanlashda moslashuvchanligi, ijodiy yondashuvi;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

- o‘quv materialini kiritish va mustahkamlash usullari.(1; 34b)

Til o‘rganish va o‘zlashtirish quyidagi jarayonda amalga oshadi; Ya’ni birinchi til o‘zlashtirish - ongli va tartibsiz shaklda, ikkinchi til o‘rganish – ongli va tartibli Tadqiqot jarayonida til ta’limini modellashtirishda lingvodidaktika, psixolingvistika, pedagogika va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi sohalarining ilmiy qarashlariga tayangan holda tahlil olib borildi.[5] Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: nazariy tahlil metodi — til ta’limida kommunikativ yondashuv, sohaviy matnlar integratsiyasi,birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til tushunchalariga oid ilmiy manbalarni o‘rganish va umumlashtirish maqsadida; qiyosiy-tahliliy metod — o‘zbek tilini birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonlarining umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash uchun; lingvodidaktik tahlil — o‘rganilayotgan til va o‘rganuvchining ona tili o‘rtasidagi tipologik farqlar, interferensiya hodisalari va ularning nutqiy xatolarga ta’sirini aniqlash uchun;

Pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlari — sohaviy matnlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning ta’limiy samaradorligini baholash uchun. Har qanday tadqiqot metodlari tanlovi qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan mantiqan uyg‘unligi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Analysis and results. Sohaviy matnlar asosida tashkil etilgan integratsiyalashgan ta’lim nutqiy kompetensiyaning barcha turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Terminologik matnlarni o‘qish, kasbiy muloqotni tinglash, hisobot va xulosalar yozish hamda taqdimot va bahs jarayonlarida ishtirok etish orqali grammatika va leksika tabiiy nutqiy muhitda o‘zlashtiriladi. O‘zbek tilini sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishning ta’limiy samaradorligi tahlilini qiyosiy jadvallar asosida ko‘rib chiqamiz


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ijtimoiy-gumanitar aniq fanlar,tabiiy fanlar, axborot-kommunikatsiya sohasi kesimida sohaviy matnlar integratsiyasi samaradorligi

(qiyosiy jadval)

Soha	Asosiy sohaviy matnlar	Yetakchi leksik yo‘nalish	Ustuvor grammatik birliklar	Kommunikativ faoliyat turi	Kutiladigan natija
Ijtimoiy-gumanitar	Ilmiy-ijtimoiy maqola, ma’ruza, tahliliy matnlar	Abstrakt tushunchalar, ijtimoiy terminlar	Murakkab gaplar, sabab-oqibat konstruktsiyalari	Munozara, tahlil, taqdimot	Ilmiy va tanqidiy nutq shakllanadi
Aniq fanlar	Formula izohi, texnik tavsif, algoritmik matnlar	Aniq terminlar, miqdoriy birliklar	Buyruq gaplar, shartli konstruktsiyalar	Izohlash, yo‘riqnoma berish	Mantiqiy va qisqa nutq rivojlanadi
Tabiiy fanlar	Tajriba tavsifi, kuzatuv matnlari	Jarayon va hodisa nomlari	Zamon shakllari, sabab-oqibat bog‘lanishlari	Tavsiflash, xulosa chiqarish	Ilmiy-tavsifiy nutq shakllanadi
Axborot-kommunikatsiya	Texnik hujjat, dastur tavsifi, IT-matnlar	Texnologik terminlar, inglizcha o‘zlashmalar	Passiv konstruktsiyalar, fe’l shakllari	Texnik muloqot, loyiha taqdimoti	Kasbiy texnik nutq rivojlanadi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Diagrammadan ko‘rinadiki, sohaviy matnlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni tajriba guruhlarida nutqiy ko‘nikmalarning barcha turlarida ijobiy dinamikani ta’minlagan. Ayniqsa, gapirish ko‘nikmasida yuqoriroq o‘sish kuzatilgani kommunikativ yondashuv va real nutqiy vaziyatlarga tayangan mashg‘ulotlar samaradorligini tasdiqlaydi. Yozish ko‘nikmasida nisbatan kamroq o‘sish esa yozma nutqning murakkab kognitiv jarayon ekanligi bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida sohaviy matnlar integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim modeli samaradorligini aniqlash maqsadida 1- va 2-guruhlar kesimida nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhlarida o‘quv jarayoni sohaviy matnlar, integrativ topshiriqlar hamda kommunikativ mashqlar asosida olib borildi, nazorat guruhlarida esa an’anaviy yondashuv qo‘llanildi.Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhlarida tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi nazorat guruhlariga nisbatan barqaror va yuqori o‘sish dinamikasiga ega bo‘lgan. Ayniqsa, gapirish ko‘nikmasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarning sezilarli oshgani sohaviy matnlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar nutqiy faollikni oshirishda muhim didaktik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

omil ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar andragogik ta’limda o‘zbek tilini o‘qitishda sohaviy matnlar integratsiyasiga asoslangan metodik yondashuvni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Discussion. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilini sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish til ta’limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Olingan empirik va qiyosiy ma’lumotlar sohaviy matnlar til birliklarini real kasbiy va ijtimoiy muloqot vaziyatlari bilan bog‘lash imkonini berishini hamda o‘rganuvchilarning nutqiy faolligi va motivatsiyasini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Bu holat kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari — lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, sohaviy matnlar ilk bor o‘zbek tili ta’limida yordamchi vosita emas, balki ta’lim mazmunini shakllantiruvchi asosiy didaktik birlik sifatida talqin qilindi. Shuningdek, o‘zbek tilini birinchi til, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonlari yagona integrativ-kommunikativ metodik model doirasida qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va xususiy jihatlari aniqlashtirildi. Bu yondashuv mavjud metodik qarashlarni boyitib, til ta’limi nazariyasiga yangi ilmiy yechim kiritadi.Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilgan integrativ metodik model oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida, shuningdek, o‘zga tillar vakillariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida samarali qo‘llanishi mumkin. Ushbu yondashuv davlat tilidan kasbiy, ilmiy va rasmiy sohalarda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi hamda PF–5850-sonli Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

— o‘zbek tili fanlari uchun sohaviy matnlar asosida integratsiyalangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

— til o‘qituvchilarining kommunikativ va lingvodidaktik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanmalar yaratish;

— o‘zbek tilini ikkinchi va xorijiy til sifatida o‘qitishda kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materiallari ulushini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, sohaviy matnlar integratsiyasida kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish o‘zbek tili ta’limining zamonaviy, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali modeli bo‘lib, davlat tilining jamiyat hayotidagi funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT:(REFERENCES)

1. Asilova O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (2024)
2. Asilova Gulshan O‘zbek Tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda autentik materiallardan foydalanish (2023)
3. Ergasheva G, Adilova S va MO‘TUL jamoasi muallifligidagi “O‘zbekona” (2021)
4. Sirojiddinov Sh., Ermatova D., Uzoqova M. “Xorijliklar uchun o‘zbek tili”(2022)
5. Muhamedova, S., & Shirinova, Y. (2024). KO‘P TILLILIK VA KO‘P MADANIYATLILIK MUHITIDA O‘ZBEK TILINI O‘RGATISH MASALALARIGA DOIR. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI,1(01), 3–6. Retrieved from https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/96
6. Ширинова, Е.Т. 2024. “Преподавание узбекского языка в многоязычной и поликультурной среде». Узбекистан: язык и культура. Проблемы прикладной филологии. 1 (5): 56-64. DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.1.5/MGFY7107
7. G‘afforov N.N., Boltayeva I. O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI (2023).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

8. Ширинова Е.Т., Умурзакова С.А. ”ОБЩИЕ И ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АУТЕНТИЧНЫХ И ОТРАСЛЕВЫХ ТЕКСТОВ, ИХ ИНТЕГРИРОВАННОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО “ (2025).
9. Shirinova Y.T., Umurzakova S.A. “O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA SOHAVIY MATNLAR INTEGRATSIYASINING O‘RNI”(2024).